

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITLARIDA O'ZBEKISTON TURIZM  
BOZORINING RIVOJLANISHI**

***Samatov Xurshid Ulmasjonovich***

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti*

*Samarqand filiali ''Gumanitar va ijtimoiy fanlar'' kafedrasi mudiri*

***Jabborov Abdulla Akbar o'g'li***

*universiteti Toshkent axborot texnologiyalari*

*Samarqand filiali TTKT fakulteti talabasi*

*Elektron pochta manzili:[abdullajabborov3@gmail.com](mailto:abdullajabborov3@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston turizm bozorining rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi. Zamonaviy texnologiyalar – xususan, onlayn bronlash tizimlari, elektron chiptalar, dinamik paketlashtirish, blokcheyn va virtual turizm kabi innovatsion yechimlarning turizm sohasiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Mamlakatimizda raqamli transformatsiya jarayoni sayyoqlik xizmatlarining sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojini qondirish va global bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim omil sifatida baholanmoqda. Tadqiqot natijalari O'zbekiston turizm industriyasining raqamli iqtisodiyot sharoitidagi rivojlanish modelini tushunishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Raqamli iqtisodiyot, Turizm bozori, Onlayn bronlash, Dinamik paketlashtirish, Blokcheyn, Virtual turizm, Elektron xizmatlar, Innovatsiyalar

**Abstract:** This article analyzes the prospects for the development of Uzbekistan's tourism market under the conditions of a digital economy. The impact of modern technologies – in particular, online booking systems, e-tickets, dynamic packaging, blockchain, and virtual tourism – on the tourism sector is examined. The digital transformation process in Uzbekistan is regarded as a key factor in improving the quality of tourism services, meeting customer needs, and ensuring

competitiveness in the global market. The study provides insights into the development model of the tourism industry in Uzbekistan within the context of the digital economy.

**Keywords:** Digital economy, Tourism market, Online booking, Dynamic packaging, Blockchain, Virtual tourism, E-services, Innovations

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются перспективы развития туристического рынка Узбекистана в условиях цифровой экономики. Анализируется влияние современных технологий – в частности, онлайн-бронирования, электронных билетов, динамического пакетирования, блокчейн-систем и виртуального туризма – на туристическую сферу. Процесс цифровой трансформации в стране рассматривается как важнейший фактор повышения качества туристических услуг, удовлетворения потребностей клиентов и обеспечения конкурентоспособности на глобальном рынке. Результаты исследования способствуют пониманию модели развития туристической индустрии Узбекистана в цифровую эпоху.

**Ключевые слова:** Цифровая экономика, Туристический рынок, Онлайн-бронирование, Динамическое пакетирование, Блокчейн, Виртуальный туризм, Электронные услуги, Инновации

Hozirgi global raqamlı transformatsiya sharoitida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari singari turizm sohasi ham jadal rivojlanib bormoqda. Raqamli texnologiyalar turizmning an'anaviy shakllarini zamonaviy modelga o'zgartirib, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, sayohatlarni rejalashtirish va amalga oshirish jarayonlarini soddalashtirish imkonini bermoqda. Ayniqsa, onlayn bronlash tizimlari, elektron chiptalar, virtual turizm va blokcheyn texnologiyalari turizm industriyasining butun ekotizimini o'zgartirmoqda.

O'zbekistonning turizm sohasi ham raqamli iqtisodiyot ta'sirida yangi bosqichga ko'tarilmoqda. So'nggi yillarda respublikada sayyoqlik infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli xizmathlarni joriy etish, xorijiy sayyoqlar uchun

qulay shart-sharoitlar yaratish borasida muhim islohotlar olib borilmoqda. Bu islohotlar natijasida mamlakatimiz turizm bozori raqobatbardosh, zamonaviy va innovatsion soha sifatida shakllanmoqda.

Mazkur ishda raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda turizm bozorining rivojlanish yo'nalishlari, zamonaviy texnologiyalarning sohaga ta'siri, global tendensiyalar va mamlakatimiz tajribasi chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, dinamik paketlashtirish, onlayn xizmatlar, virtual turizm, bronlash tizimlari va blokcheyn texnologiyalarining amaliy ahamiyati o'rganiladi. Bu orqali O'zbekiston turizm sohasining raqamli rivojlanish istiqbollari ochib beriladi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi O'zbekistonning turistik bozorini rivojlantirishning yangi tendensiyalarini belgilaydi. Xususan, turizm biznesining globallashuvi, internet-resurslarning faol rivojlanishi va turizm bozoriga ta'siri, sayohatlarni yangi shaklda tashkil etish yondashuvi O'zbekiston turizm bozorining rivojlanishini yangicha shakllantiradi.

Turistik onlayn-xizmatlar bozori – elektron xizmatlar savdosining eng tez rivojlanayotgan sektorlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda xorijiy sayyoohlar O'zbekiston bo'yab o'z safarlarini rejalashtirish va tashkil qilishda internetdan faol foydalanmoqda.

Turizm sohasida sayyoohlik turlarini dinamik paketlashtirishni bozorga ilgari surish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Bu – aviakompaniyalar, mehmonxonalar va sayyoohlik xizmatlari aggregatorlarining resurs tizimlariga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish orqali sayyoohlik mahsulotlarini shakllantirish va joriy etishning yangi texnologiyasidir. So'nggi paytlarda ushbu texnologiya asosida ishlab chiqarilgan paketlarning ulushi Yevropa bozorida sotilayotgan turistik mahsulotlarning yarmidan ortig'ini tashkil etmoqda.

Mahsulotning yuqori texnologiyaligi uni onlayn-buyurtma qilish uchun ideal qiladi. Yevropada onlayn turlar savdosi asosan dinamik tarzda shakllangan paketlar hisobiga o'sib bormoqda. Ayrim mahalliy turoperatorlar muntazam reyslar negizida dinamik paketlashtirish "nisha"sida ishlarni faol rivojlantirmoqda.

O'zbekiston turistik bozori bo'yicha bashorat ijobiy bo'lib, bir qator turkompaniyalar klassik turoperatorlikdan butun dunyo bo'ylab hamkorlar sonining ko'pligi bilan tubdan farq qiladigan va jiddiyroq nazorat talab qiladigan dinamik paketlashtirish negizida ish sifatiga ko'proq asosiy e'tibor qaratishni rejalashtirmoqda. Bu sohada yuqori risklar saqlanib qolaveradi, shu sababli firmalar asosiy e'tiborni "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi va muntazam aviakompaniyalar bilan ishslashga qaratmoqda.

Yaqin kelajakda Samarqand, Buxoro va Xivadagi sayyohlik ob'ektlarini tashkiliy va mustaqil sayohatlar sifatida maksimal darajada ta'minlash uchun temir yo'l transporti (Afrosiyob poyezdlari) asosida temir yo'l qatnovlari yo'lga qo'yiladi. Mamlakat turizm sanoatini tashkil etishning tubdan yangi texnologik modeli bozorning barcha ishtirokchilari – iste'molchilardan tortib, sayohatga xizmat ko'rsatuvchi provayderlargacha (aviakompaniyalar, mehmonxonalar) uchun foydali bo'ladi.

Zamonaviy texnologiyalar sayyohlarga o'z sayohatlarini boshidan oxirigacha mustaqil ravishda rejalashtirish va tashkil etish: barcha turdag'i transportlar uchun arzon narxlardagi chiptalarni xarid qilish, turar joy bron qilish, marshrutlar yaratish va ko'ngilochar dasturlar tuzish imkonini beradi.

Sayyohlik sohasidagi eng keng tarqalgan innovatsiyalar transport va turar joy xizmatlari (elektron bronlash, elektron chiptalar, elektron vizalar) sohasida kuzatilmoqda. Birinchi yangiliklardan biri "elektron chipta" xizmatidir. Shuningdek, mehmonxona, madaniyat muassasalari, boriladigan joylardagi voqealar va safarda turlicha xizmatlar haqida zarur ma'lumotlarni olish imkonini beruvchi elektron savdolar ham joriy etilgan.

Individual sayohatchilar va guruhlar uchun aviachiptalarni qidirish mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, u yoki bu yo'nalishdagi tashuvchilar takliflarini bilish, eng arzon va tezkor to'g'ridan-to'g'ri va bog'lovchi reyslarni aniqlash, xizmatlar uchun narxlarni pasaytirish haqida xabardor bo'lish lozim.

O'zbekiston bo'y lab sayohatlar uchun nafaqat aviachiptalar, balki poyezd va avtobuslar uchun chiptalar to'planuvchi servisdan foydalanish mumkin. Ommabop ilovalar O'zbekistonning istalgan nuqtasida mehmonxonalar, yotoqxona, lagerlar, kvartira va villalar haqida ma'lumot beradi. Siz haqiqiy fotosuratlarni va mehmonlarning sharhlarini ko'rishingiz, xonani (ko'pincha oldindan to'lovsiz) bron qilishingiz, ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar uchun shaharlar bo'yicha qo'llanma va muhim chegirmalar olishingiz mumkin.

So'nggi paytlarda turistlar uchun servis sifatida konsertlar, ekskursiyalar, degustatsiyalar, mahorat darslari taklif etilmoqda. Sayohat qilishdan oldin Toshkent, Samarcand, Buxoro, Xiva singari yirik shaharlardagi mahalliy transport ilovalari bilan erkin harakat qilish imkonini beruvchi oflays xaritalarni yuklab olish mumkin.

Internet orqali global bronlash tizimlari bilan ishlash agentlikka har qanday vaqtda narx va bo'sh joylar soni haqida o'z vaqtida va ishonchli ma'lumotni olishni, balki buyurtmani bajarishning barcha bosqichlarini kuzatib borish imkonini ham beradi.

Turli xil bronlash tizimlari (CRS – computer reservation systems) mavjud bo'lib, ularning barchasi taqdim etilayotgan xizmatlarning to'plami va texnologik ishlashi bilan farq qiladi. Sirena, Amadeus, Gabrielle kabi eng eski tizimlarning aksariyati maxsus terminallar orqali ishlaydi va bu tizimlardan foydalanish uchun alohida aloqa kanali talab qilinadi.

Ushbu tizimlarda fotosuratlar, xaritalar va boshqa grafik axborotlar mavjud emas. Ular asosan matnli buyruqlar asosida ishlaydi va ulardan foydalanish uchun maxsus tayyorgarlik talab etiladi. Aviachiptalar va temir yo'l chiptalari asosan ushbu tizimlar orqali sotiladi. Bu tizimlarning yaratuvchilari aviakompaniyalar bo'lib, chiptalarni sotish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu tizimlar bilan ishlashda oylik xarajatlar 200-800 dollarni tashkil qiladi, bu esa kichik kompaniyalar uchun har doim ham ko'tarilmaydigan xarajatdir. Hozirda bunday tizimlar bilan chiptalar sotadigan yirik turoperatorlar faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy

bronlash tizimlari internet orqali ishlaydigan, oddiy kompyuterda faoliyat yurituvchi soddalashtirilgan va arzon variantlarni taklif qilmoqda.

Bugungi kunda turizmning yangi turlari orasida virtual turizm alohida ajralib turadi. **Virtual turizm** – bu shaxsning zamonaviy kompyuter texnikasi va aloqa vositalari orqali amalda joyiga bormasdan, real mavjud bo‘lgan yo‘nalishlar haqida maksimal darajada realistik va hissiy axborotga ega bo‘lishidir.

Virtual turizm – potensial sayyohga u yoki bu yo‘nalishni ilgari surishning istiqbolli vositasi bo‘lib, u tashrif buyuriladigan joylarning madaniy, tarixiy, rekreatsion imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va o‘zi uchun eng qiziqarli bo‘lgan obyektlar va mashg‘ulotlarni tanlash imkonini beradi.

**Blokcheyn texnologiyasi** yaqin 5–10 yil ichida turizm sanoatini tubdan o‘zgartirishi mumkin. Hozirda turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish uchun blokcheyndan foydalanish masalasi o‘rganilmoqda. Bu texnologiya iste’molchini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchiga bog‘laydi va vositachilarni ortiqcha xarajatlarsiz chetlab o‘tadi. Ushbu tendensiya, birinchi navbatda, turizm agentliklari va vakillarini bezovta qilmasligi mumkin emas. Turistik xizmatlar yetkazib beruvchilar va turoperatorlar o‘rtasida mijoz uchun kurash kuchaymoqda. Ayni vaqtda, agentlik komissiyalarining bekor qilinishi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyurtmalar uchun sodiqlik dasturlari va yanada jozibali narxlar taklif etilishi vositachilar raqobatbardoshligini pasaytiradi.

**Xulosa qilib aytganda**, raqamli texnologiyalar O‘zbekiston turizm bozorida xizmat ko‘rsatish sifati, mijoz bilan ishlashda qulaylik va aniqlik, hamda innovatsion yondashuvlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Kelgusida raqamli transformatsiya turizm sanoatida ishtirokchilarning barcha bosqichlariga chuqr singib, bozorni yanada raqobatbardosh qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. – T.: Ma’naviyat, 2008.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5611-son Farmoni, 2021-yil 6-may. "Turizm sohasini rivojlantirish strategiyasi".
3. Sharipov F., Nasirov R. "Turizm va xizmat ko'rsatish asoslari". – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019.
4. Smith, M. & Puczkó, L. "Health and Wellness Tourism". Routledge, 2014.
5. UNWTO (2023). "Tourism and Digital Transformation" – World Tourism Organization.
6. Kotler, P., Bowen, J., Makens, J. "Marketing for Hospitality and Tourism". Pearson, 2017.
7. OECD (2022). "Digital Transformation in Tourism: Policy Approaches and Case Studies".
8. Bakhodirov S. "Raqamli iqtisodiyot va O'zbekiston turizm industriyası" // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2023, №4.